

**O`ZBEKSTAN RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAHSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

**O`ZBEKSTAN RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XOJALIGI
VAZIRLIGI**

**Toshkent Davlat agrar universiteti Nukus filiali
ZOOTEXNIYA KAFEDRASI**

Bakalavr 5410600 –Zootexniya ta`lim yo`nalishi 4b-kurs talabasi

Kurbanbaev Akmal Atabekovich

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu; Qoraola zotli buzoqlarning jinsiy va fiziologik rivojlanishiga ozuqaning ta`sirini urganish

Ilmiy raxbar:
Ajinyoz nomidagi
Nukus Davlat
pedagogika instituti
b. i. k. dotsent

J. Saparbaev

Bitiruv malakaviy ishi ko`rib chiqildi va ximoyaga qo`yildi

«Zootexniya» kafedrasi baslig`i

Q-x menejmenti va zootexniya
Fa kul`teti dekani

_____TurganbaevR

_____Jumashev R.

2016 yil _____

2016 yil _____


Nukus-2016 yil



MUNDARIJA

Kirish-----	3
I. BOB. ADABIYOTLAR TASNIFI -----	6
II. BOB Material metodika -----	14
2.1 Qora-ola zotli sersut sigirlarning maxsuldorlik ko'rsatkichlarning ozuqa omiliga bog'liqligi.-----	14
III. BOB ASOSIY QISIM-----	22
3.1. Qora-ola mollarning 4-6 oylik urg'ochi buzoqlarning o'sish sur'ati-----	22
3.2 Qora-ola zotli buzoqlarning jinsiy va fiziologik rivojlanishiga ozo'qaning ta'siri-----	25
3.3 Podani tuldirish uchun urgochi naslli buzoklarni tanlash-----	26
3.4 Buzoqlarni sut ichish davrida asrash usillari-----	41

3.5 Urgochi buzoklarni oziqlantirish-----	46
X U L O S A -----	49
Tavsiyalar-----	50
IV BOB. Hayot faoliyati havfsizligi -----	51
Adabiyotlar-----	57



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish darajasi kata axamiyatga e'gadir. Chunki respub-likamiz axolisini 60 foizdan ko'progi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Ularning turmush darajasi albatta qishloq xo'jaligi bilan bog'likdir. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chikarilayotgan dehqonchilik va chorvachilik maxsulotlari respublika axolisini ozik-ovkatga, sanoatini e'sa xom ashyoga bo'lgan talabini kondirishga katta xissa ko'shib kelmokda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf e'tishning yo'llari va choralari" deb nomlangan asarida dolzarbliigi 2008 yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga baho berar e'kan, ko'pgina xalqaro e'kspert va mutaxassislar bu inqirozning sabablari va yanada avj olishi bilan bog'liq bashoratlarida javob-lardan ko'ra ko'proq savollarga duch kelayotganligidan kelib chiqadi.

Bu kitob ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar, ikkinchisi e'sa bank tizimini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy e'tish - O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf e'tish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir.

Prezidentimiz o'z kitobida O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar e'kanmiz, e'ng avvalo, "shok terapiyasi" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy e'tishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechilganligi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, "Yangi uy qurmasdan turib, e'skisini buzmag" degan



hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanlanganligini, e'ng muhimi, parokandalik va boshboshdoqlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'tish davrida aynan davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab olinganligini ta'kidlab o'tadi.

Ma'lumki, mahsulot tannarxining pasayishiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda harajatlarni kamaytirish yo'li bilan e'rishish mumkin.

Aholining hayoti farovonligini oshirishda chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishning ahamiyati kattadir. Chunki aholi sonining o'sishi bilan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talab ham o'sib boradi. Chorvachilikni jadal rivojlantirish bilan aholigi chorvachilik mahsulotlariga, engil va oziq-ovqat sanoatlarini e'sa xom-ashyo bilan ta'minlashga imkon tug'iladi. Bu vazifani bajarish uchun har bir qishloq xo'jalik korxonalarini xar tomonlama tahlil qilib, foydalanayotgan ichki imkoniyatlarini aniqlab chiqarishni joriy e'tish zarur.

Xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida respublika qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish, xususan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni ortib borishi chorvachilikda xo'jalik mahsulotlarini etishtirishga sarflanayotgan moddiy qiymatlar va mehnat vositalarini tejamkorlik bilan sarflash va buning natijasida tannarxni arzonlashtirish fermer xo'jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Xalq turmush darajasining yuksalishi mahsulot tannarxining pasayishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, bunga e'sa asosan mahsulot ishlab chikarish samaradorligini oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish yuli bilangina e'rishish mumkin.

Chorvachilikning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda mahsulot ishlab chikarish sifatining pirovard natijasi tannarx ma'lum darajada anik omillarga-ozuqlantirish va naslchilik ishlari darajasiga hamda boqish texnologiyasi sifatiga bog'liq bo'ladi.

Chorvachilik mahsulotlari tannarxini tahlil qilishning asosiy vazifasi bo'lib biznes rejani mahsulot turlari bo'yicha tannarx ko'rsatkichlarini bajarilishidagi



tafovutni, biznes rejada belgilangan tovar mahsulotlari tannarxini asoslanganligi, zooveterinariya tadbirlari xarajatlarini o'zgarishini, mollarning mahsuldorlik darajasini, fermadagi ishlarning mehanizatsiyalashgan darajasini, chorva mollari uchun ozuqa ratsioni qanchalik iqtisodiy samara berayotganini, mehnatning to'g'ri tashkil e'tilganligini o'rganish va ularga qiyosiy baho berishdan iboratdir. Bu ko'rsatkichlarni biznes reja va hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslash va shu asosda tannarxni arzonlashtirish tadbirlarini belgilash hamda, bu sohada foydalanilayotgan imkoniyatlarni topish va ulardan samarali foydalanish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishini maqsadi: xujaliklarda eskirgan, oddi urgochi buzok va tanalarning biologik imkoniyatlarini inobatga olmagan oziklantirish va saklash usullarini kullashlari natijasida,urgochi tanalarning kochirish yoshida vazni kichik, jussasi bakuvvat bulmasligi, ustirilgan sigirlarning vazni kam, maxsuldorligi past bulishiga sabab bulmokda. Shu boisdan maqsadimiz padani tuldirish uchun ajratilgan urgochi buzok va tanalarni ilmiy asoslangan usullarini tahlil qilish va qoraola zotli buzoqlarning jinsiy va fiziologik rivojlanishiga ozuqaning ta'sirini o'rganish.

Maskur ishda mutazasislar oldida turgan asosiy vazifalar quydagilardan iborat:

1. 3-4- marotaba tug'adigan nasildor sigirlarni, ajdodlari sut unumdorlik ko'rsatkichlari yuqori yosh buqalar bilan juftlash;
2. Buzoqlarning embirional rivojlanish davrida maxsuldor ona sigirlarni to'laqonli oziqlantirish va tug'ish oldidan tajribada sinalgan ilgor texnologiyalar erdamida tarbiyalashni chorvachilikda sarflanayotgan xarajatlarni va mahsulot tannarxini iqtisodiy-statistik tahlil qilishdan iboratdir.

Shuningdek, ishning asosiy vazifasi iqtisodiy tahlil usullari yordamida chorva mollarini o'stirish va mahsuldorligini oshirish rejalarini bajarishni tekshirish, unga ta'sir e'tuvchi omillarni aniqlash, ma'lum yillar buyicha ularni o'zgarshini o'rganish va mihsulotlar tannarxini kamaytirish imkoniyatlarini aniqlashdir.

I BOB



ADABIYOTLAR TASNIFI

Chorvachilikning etakchi sohalaridan bo'lgan koramolchilik axolini sut va go'sht maxsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Dunyo miqyosida va shu jumladan, Uzbekistonda 1970—1995 yillar mobaynida koramolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Qoramol zotlari va ularning maxsuldorligi ko'payib bordi. Lekin 1996—1998 yillarda O'zbekistonda jamoa chorvachilik nodalat xo'jaliklariga aylantirilishining dastlabki davrida xamda oziqabop ekinlar asosiy maydonlarining kiskartirilishi, ozika etishtirish xajmining kamayishi, mollarni oziklantirish me'yori va to'yimlik darajasining pasayishi bilan mollar maxsuldorligi darajasi talabga javob berolmay qoldi. Bu esa mo'l ko'l chorvachilik maxsulotlari ishlab chikarish, xalkimizning chorvachilik maxsulotlariga bo'lgan extiyojini to'la qondirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qoramolchilikdagi bu muammolarni xal kilish fan va ishlab chikarish oldida turgan dolzarb vazifadir.

A.Sadovskiy, D.Sadovskayalarning ta'kidlashicha, jinsiy etilish 13 oylik va undan katta yoshdagi g'unajinlar faqatgina yaxshi, sifatli em-xashakdan iborat ratsionni iste'mol qilish barobarida normal rivojlanish va o'sishni ta'minlay oladigan oshqozon sig'imiga ega bo'ladi. (Zooveterinariya jurnali, 2010 yil, 8-son, 27-29 bet)

U.Nosirovning "Qoramolchilik" kitobida qoramolchilikning rivojlanish xolati va ularning kelib chiqishi, mahsuldorligi, sut mahsulotlari olishni samaradorligini oshirishda unga ta'sir e'tuvchi omillar, oziqlantirish, go'sht mahsuldorligi, va unga ta'sir e'tuvchi omillar, qoramollar zotlari, qoramolchilikda sifatli raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ishlab chiqarishga joriy e'tish masalalari xar taraflama yoritib berilgan.

T.Ikromovning "Chorvachilik asoslari" darsligida chorvachilikning rivojlanish xolati va xalq xo'jaligidagi ahamiyati, chorvachilik samaradorligini oshirish uchun ulardan olinayotgan mahsulotlarni sifatli va jaxon bozori talablariga javob beradigan qilib ishlab chiqarish xamda sifatini va raqobatbardoshligini boshqarishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash va ishlab chiqarishga tadbiiq e'tish,



chorvachilikda naslchilik ishlarini olib borish, tanlash va saralash, ozuqalarning to'yimlilik masalalari keng yoritilgandir.

G` .Samatov J. Yodgorov va I. Rustamovalarning “Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil e`tish” kitobida iqtisodiyotni e`rkinlashtirish va qishloq xo`jaligida islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida respublika qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil e`tishning ilmiy-amaliy asoslari, dehqonchilik va chorvachilikni tashkil e`tish, mehnat motivatsiyasi, moddiy-texnika ta`minoti, resurslardan oqilona foydalanish, tovar mahsulotlari ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari, xo`jalikda biznes reja tuzish qonuniyatlari, dehqon, fermer xo`jaliklari va infratuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirgan holda o`zaro tashkil e`tish, iqtisodiy samaradorlik tamoyillari va mexanizmlari o`z ifodasini topgan.

I.N.Chernopyatov “Buzoqlarni tarbiyalash” degan maqolasida buzoqlarni tarbiyalash ona qornida boshlanishi lozim, xuddi shu vaqtda buzoqning kelajakdagi sog`lomligi yoki kasalligiga, kuchlilik yoki kuchsizlilikiga, chiroylilik yoki beo`xshovlilikiga asos solinadi: -deb yozgan edi. Uning fikricha, bo`g`oz sigirlar ratsionida etarli darajada protein, yog`, fosfor va tuzlar bo`lishi lozim.

V.I.Sel`tsov [2007] e`zishicha sigirlarni xo`jalikda foydalanish davomiyligi bo`yicha selektsiya qilish yaxshi natija bermaydi, shuning uchun sut mahsuldorligi bo`yicha selektsiya qilish uzoq muddat foydalanish bilan ijobiy korrelyatsiya bo`ladi.

N.A.Nevinskaya, T.L.Silivirova, A.M.Bulgakov [2001] ma`lumot-lariga ko`ra sigirlarni detallashtirilgan ratsionlarda boqib, yodning etishmagan qismini tarkibida yodi bor kraxmal eritmasini sigirga ukol qilish e`ki yodning 0,22-0,6% eritmasini yuborish yilin kasalliklarini oldini oladi.

R.N.Lyashuk, A.I.Shendakov, V.V.Sorokinlar [2007] e`zishlaricha qora-ola zotini golshtinlashtirish 62,5 % ga etkazilib, so`ng o`z ichida urchitilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kelgusida esa faqat oziqlantirish va saqlash sharoitlarini yaxshilash evaziga chatishtirini davom ettirish mumkin.



N.V.Kuznetsov, L.V.Sicheva [2003] èzishlaricha tarkibida mikro-element vitaminlar mavjud korova – 4 va kaofit K5 ozuqa qo'shimchalari berish har sigirdan 128 va 646 kg ko'p sut olish imkonini beradi.

Sog'lom yaxshi rivojlangan urg'ochi tanalar 16-18 oyligida qochiriladi (O.Qo'ldoshev, 2007). Tanalarni vaqtida qochirmaslik podani qayta to'ldirish sur'atini pasaytiradi. Bu o'z-o'zidan, sigirlar qisir qolishi, muddatidan oldin yaroqsiz bo'lib qolishi va boshqa salbiy holatlarni yuzaga keltiradi.

Ilg'or chorvadorlar butun podadagi sigirlarni tuqqandan so'ng 50 kun ichida kuyga keltirib, qochirish natijasida har 100 boshdan 100-105 gacha buzoq olishga muvoffaq bo'lishgan. Demak, sigirlarni tuqqandan keyin tezda kuyga keltirib qochirish, ular qisir qolishini oldini oladi, buzoq va ko'proqsut olishni ta'minlaydi, 0,6 % eritmasini yuborish elin kassalliklarini oldini oladi.

Ch.Dusanov èzishicha [2002] chorvadorlarga qulaylik yaratish maqsadida joylarda yangi omuxta em sotish shaxobchalari ochiladi, hamda mavjudlari ta'mirlanib zarur jihozlar o'rnatildi. Bu borada Prezidentimizning "Shaxsiy èrdamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'patirishni kuchaytirishni hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab-chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ayni muddao bo'ldi.

Hozirgi kunda Parkent tumani bo'yicha ana shunday shahobchalardan 13 tasi ishlab turibdi. Chorvadorlarning uzog'ini yaqin qilib, èrdam bermoqda. Yana bir quvonchlisi shuki, tumanda chorva bilan shug'ullanuv-chilar safi kun sayin kengaymoqda. Bularning bari tumanlarda chorva mollari bosh soni oshishi va pirovardida mo'l sut va go'sht etishtirishni ta'minlaydi.

U.Kuchcheiv èzishicha [2004] – Chorva mollari parvarishida mart oyi qishlovini betalofat yakunlashda muhim ahamiyatga ega. Bu borada bir qancha tadbirlar oshirilishi lozim:

- chorva mollarini sifatli ozuqalar bilan to'la qiymatli oziqlantirish va ularni asrash sharoitlarini yaratish;

- tug'ishga 15-20 kun qolgan buzoq sigir va g'unojinlarni maxsus xonaga o'tkazish, ularni to'shamalar bilan ta'minlash;



- yani tug`ilgan buzoqlarni maqsadaga muvofiq o`stirishni tashkil etish;
- zarur veterinariya – sanitariya tadbirlarni amalga oshirish;

Chorvachilik mahsulotlari etishtirishni ko`paytirish chorva mollari bosh sonini ko`paytirmasdan, ularni to`la qiymatli oziqlantirish, asrash sharoitlarini yaxshilash ana shunday omillardan sanaladi.

I.Hafizov, A.Hamraev, A.Hafizov *èzishicha* [2002] – aholining chorvachilik mahsulotlariga bo`lagan ehti \grave{e} jini ta`minlashda chorva mollar bosh sonini ko`paytirish, ularning nasl va mahsuldorlik ko`rsatgichlarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Bu esa chorvador – seleksionerlar zimmasiga chorva mollari yurtimizning tabiiy iqlim va ozuqa sharoitlariga moslashgan hamda turli kasalliklarga chidamli sermaxsul zot, xil, poda va tizimlarni yaratish vazifasini yuklaydi.

Yuqori nasl xususiyatiga ega bo`lgan buqachalar olish uchun eng avvalo sigirni urchitishga asosiy e`tiborni qaratish lozim. Sigirlarni nasilli buqalar bilan juftlash uchun saralashda ularning foydali xo`jalik belgilarini hisobga olish kerak.

Naslli buqalar ratsionida etarli miqdorda vitaminlar, mineral moddalar, ayniqsa kaltsiy va fosfor bo`lishi kerak.

Naslli buqalarni yaxshi sharoitda saqlash va parvarishlash ularning sog`ligini asrashda muhim ahamiyatga ega bo`lib. Nasl uchun foydalanish muddatini uzaytirib beradi.

I.Hafizov, [2000] *èzishicha* bushuev zotli sigirlarning sut mahsuldorligi etarli emas (1800-2000 kg). Buning asosiy sababi oziqlantirish sharoitining etarli emasligi va podani to`ldirishga muljallangan tanalarni o`stirish, boqib parvarishlash qoniqarsiz ekanligida.

B.Boybulov va M.Ashirov [2007] ma`lumotlari bo`yicha Bushuev zotli sigirlarning asosiy seleksiya belgilari ularning tizimlarga xos sigirlarga nisbatan yuqori sut mahsuldorligiga, pushtdorlik xususiyatlari hamda elin ko`rsatgichlariga ega bo`lishini ko`rsatgan.

I.Hafizov, M,Kuchchiev, A.Hafizov [2001] lar qizil cho`l, I va II bo`g`ini qizil cho`l va angler chatishma sigirlarida olib borilgan tajribalari II bo`g`in



duragay sigirlar ko'proq ozuqa is`temol qilganini qayd etganlar. Jumladan bo'g`in duragaylari qizil cho'l va I bo'g`in sigirlarga nisbatan tegishli ravishda 57 va 44 kg beda pichani, 37,8 va 17,8 kg somon, 158,2 va 75,1 kg senaj, 259,8 va 132,4 kg silos, 189,2 va 73,1 kg ko'k beda ko'p iste`mol qilgan va bu ozuqalarning to'yimligi bo'yicha 175,1 va 90,3 ozuqa birligi, 2206,2 va 1137,8 modda almashinuvchi energiyaga, 218,9 va 112,9 kg quruq moddaga, 29,8 va 15,3 kg xom protiyaga, 28 va 1,45 kal`tsiyga, 0,67 va 0,34kg fosforgia yuqori bo'lgan.


A.Avizov, T.Akmalxonov [2004] èzishlaricha bushuev zotli va ularning "Derbent" va "Modo" laqabli golishtin buqalari I bo'g`in duragay sigirlarning birinchi tug`ishidagi tirik vazni. Servis davri davomiyligi yuqori bo'lib, qochish indeksi past bo'lgan.

R.G.Aliev, A.B.Alipanaxov [2006] fikirlaricha yuqori sut mahsuldorligi sigirlarning tabiiy chidamligiga salbiy ta`sir ko'rsatish mumkin, bu esa ularni birinchi navbatda to'yimli oziqlantirishni hamda asrash sharoitlarini yaxshilashni taqoza etadi.

A.P.Lazarevich, A.A.Lazarevichning [2006] èzishicha, èzning issiq iqlim va quèsh radiatsiyasi sigirlarning salbiy ta`sir ko'rsatish mumkin, buning oldini olish uchun esa ularning asrash sharoitlarini yaxshilash, jumladan, ayvonlar bilan ta`minlash, mollarni tashqi muxit ta`siriga chidamliligi bo'yicha tanlash ishlarini olib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sutning tarkibida oqsil miqdori molning zotiga qarab 3,2 dan 4,0 % bo'ladi. Uning tarkibidagi kazien miqdori esa jamiki oqsil moddalarining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Jumladan kzien xilma-xil pishloqlar, tvorog, brinzalarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Sut tarkibida karbon suvlaridan sut qandi – laktoza mavjud. Bakteriyalar sutining tarkibidagi laktozani bijg`itib, uni kislotaga aylantiradi. Bu sutning o'ziga xos xususiyatlaridan bo'lib, undan qatiq tayèrlashda foydalanadi.

V.Vinogradov, M.Kirilov, S.Kumarin èzishlaricha sigirlar sut mahsuldorligining 25 % irsiy, 75 % tashqi muhit omillariga bog`liq sigirlarni oziqlantirish bosh omil hisoblanadi.



Sigirlarga quyidagi ozuqalar aralashmasi berilsa, ularning mahsuldorligiga ijobiy ta'sir etadi (kg) : senaj – 17,5, silos – 6,5, pivo – to'ppasi – 2 kg, patoka – 1,5 kg, jom – 2 kg, omixta em – 3,5 kg, 10 kg sut beradigan sigirga beriladi.

I.Maqsudov va boshqalar [2008] golland zotli sigirlarni golshtin buqalari bilan chatishtirish natijasida olingan duragaylar sof zotli hayvonlarga nisbatan o'sish va rivojlanish ko'rsatgichlarining 10 yuqoriligi, hamda tana tuzilishlarining yaxshilanganligini haqida èzadilar.

V.G.Sarapkin, Yu.A.Svetova va S.N.Ivanov [2006] èzishlaricha turli qora – ola zot tiplarini golshtin zoti bilan chatishtirilganda buqalar xususiyatlariga ya'ni elinini kosasimon shaklda bo'lishi 8 – 45 % ga ko'payib, sut berish tezligi 0,08 – 0,56 kg/min ga oshgan. Umuman olganda duragay sigirlar elinining uzunligi, eni va chuqurligiga ortib, elin so'rig`ichlarini biroz qisqarishini kuzatganlar.

A.Qaxarov, Do'squlov va I.I.Golubkin [2005] èzishlaricha O'zbekiston sharoitida mahalliy zebusimon qoramollar imkoniyatlaridan foydalanish kerak. Ularning oziqlantirish va saqlash sharoitini yaxshilash natijasida 1775 kg èki zebusimon mollar populyatsiyasiga nisbatan 122,3 % oshgan, ular sutining èg`liligi 4,21 %ni tashkil qilgan.

M.D.Dedov, N.V.Sivkin èz paytida sigirlarni su`niy yaylovlarda boqish ularning sut mahsuldorligini ko'paytirish va sutining texnologik xususiyatlariga ijobiy ta`siri èzilgan.

Yozda yaylovda boqilgan sigirlar sutida tvorog tayèrlaganda namligi 75,97 %, quruq modalardan foydalanishi 38,72 % ni tashkil etgan. Sarèg` tayèrlaganda esa èg`liligi 83,52 %, qaymoq èg`idan foydalanish 99,13 % ni tashkil etgan.

M.Dosmuxammedova, U.Nosirov [2011] ma`lumotlari shundan dalolat beradiki chorvachilik fermer xo'jaliklarida em-xashak etishtiradigan moydonlar qonunda belgilanganidaèq, ozuqabop ekinlar hosildorligini 75-80 ts ozuqa birligiga etkazish kerak. Ushbu muammolarni echilishi hozirgiga nisbatan



sigirlardan 1,5 barobor ko'p buzoq (100 sigirga 85-90 bosh), 1,5 – 2 hissa ko'p s (3500-4500 kg) olish, èsh mollarning o'rtacha kunlik vazin o'sishini 2 – 2,5 barobarga (600 – 800 g) oshirish imkonini beradi.

I.Maqsudov, Sh.Amirov [2009] èzishlaricha fermer xo'jaligi sharoitida urg`ochi tanalarni turli saqlash usullarda ya`ni molxona ichida, molxona – yayrash maydonchalarida, molxona va faol xaydash hamda ochiq maydonlarda o'stirish keltirilgan. Faol haydab va ochiq maydonlarda o'stirilgan sigirlar qolgan guruhlarga nisbatan ko'proq sut bergan.

O'zbekiston qora – olasi, chetdan keltirilgan qora – ola va qora – ola x golshtin duragay sigirlarining sut mahsuldorligi oxirlarining ustunligidan dalolat beradi.

Urg`ochi tanalarni ratsionida turli miqdorda em bo'lishi o'stirilgan sigirlar sut mahsuldorligiga ta`sir etgan (15, 20, 30 va 40 %). Tajribalarda 30 % em bilan o'stirilgan sigirlarning ustinligi qayd etilgan. Sermahsul sigirlar o'stirishda tug`ilgandan sigirga ko'chirguncha jadal o'stirish erta va sermahsul sigirlar o'stirishga sabab bo'lgan.

G`unajinlarni tug`ishga tayèrlash va birinchi tuqqan sigirlarni sutini ko'paytirishni sermahsul sigirlar o'stirishga asos bo'lgani èzilgan.

U.N.Nosirov [2004] qoramollar o'zaro bir – biridan sut mahsuldorligi bo'yicha farq qiladi. Sigirlar mahsuldorligi ko'pincha ularning zotiga, oziqlantirish me`èri va turi, saqlash va parvarishlash sharoitlariga bog`liq bo'ladi. Hattoki, bir xil sharoitda boqilaètgan bir bir xil zotga mansub zotlar bo'lgan sigirlar ham mahsuldorligi bilan bir biridan farqlanadi. Bunday farqlanishni sigirlarning individual, ya`ni o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari hamda irsiy omillari bilan tushuntirish mumkin. Sutning kimèviy tarkibi va to'yimlilik yuqoridagi keltirilgan ko'pgina omillarga bog`liq bo'lib, har xil zotlarda o'ziga xos ravishda o'tadi.

U.Nosirov, O.Sobirov [2002] ma`lumotlari bo'yicha chorvachilikning nasilchilik bazasini davlat "Oltin fondi" darajasiga ko'tarish barcha mavjud muammolarning ijobiy xal qilinishiga asos bo'ladi.



E`tiborda tutish joizki, jami ozuqa birligi (45 ts) nisbatan 35 – 43 kontsentrat, 18 % dag`al ozuqalar, 19 – 22 % senaj, 20 – 25 % silos bilan oziqlantirish mollar mahsuldorligini keskin oshiradi.

T.Nosirov [2005] `ezishicha, golshtin zotli chatishma sigirlarning tana harorati me`erda bo`lib, issiq kunlari ko`p o`zgarmagan, issiqqa chidamlilik indeksi 59,6 – 60,8 bo`lib yaxshi ko`rsatgich hisoblanadi. Yoz paytlarida birinchi tug`im sigirlar qonida nafas olish - oksidlanish jara`nlari faolashgan. Yozda gemogloblin 11,48 – 11,60 g %, eritrotsit 6,30 – 6,48 mln/mm³ va leykotsitlar 9,84 – 10,14 ming/mm³ bo`lgan.

Sh.A.Akmalxonov [2005], U.Nosirov (1974, 2001), M.Ashirov (1994), K.Karibaev (1996, 1999), L.K.Ernst (2001) , A.V.Cherekaev (2001) va boshqalar taniqli olimlarning `ezishicha, qoramollarning sut mahsuldorligiga 60 – 70 % va go`sht mahsuldorligi 60 – 62 % oziqlantirishga uning darajasiga va to`laqiymatligiga bog`liq ekan. Bu fikrlardan ham ravshanki qoramollarning xo`jalik foydali belgilarini yuzaga chiqarishda oziqlantirish bosh omil hisoblanadi.

U.Nosirov, O.Sobirovlar [2003] kelajakda mamlakatimizda chorvachilik fermer xo`jaliklarida bir shartli molni yiliga 45 ts ozuqa birligi hisobidan boqish yo`lga qo`yilishini ilmiy jihatdan asoslab berishgan. Ularning ta`kidlashicha, jami ozuqa birligiga (45 ts) nisbatan 35- 43 % em, 18 % gacha dag`al ozuqalar, 19 – 22 senaj va 20 – 25 % silos bilan oziqlantirish mollar mahsuldorligini oshiradi. Ushbu ozuqalar tarkibidan kelib chiqqan xolda 30 bosh shartli molga ega bo`lgan fermer xo`jaligida 1350 ts ozuqa birligi, shu jumladan, 525 ts em, 848 ts senaj, 1688 ts silos va 608 ts dag`al ozuqa talab etiladi. Xuddi shunday fikirlarni sharoitida tadqiqotlar olib borgan L.K.Ernst (2001), X.Amerxanovlar (2004) ham bildirishganlar.



II. Material metodika

2.1 Qora-ola zotli sersut sigirlarning maxsuldorlik ko'rsatkichlarning ozuqa omiliga bog'liqligi.

Hayvonlarning mahsuldorlik ko'rsatgichlarini ozuqa omiliga bog'liqligini evalyutsion ta'limot asoschisi Ch.Darvin (1951, 1977) ham o'z vaqtida ta'kidlab o'tgan. Xuddi shuningdek bu masalada Zootexniya fanining atoqli namoyandalari E.A.Bogdanov (1947), P.N.Kuleshov (1949), C.H.Dinca (1963), V.Ashurot (1979), G.Slint (1971), E.Andersenlar (1989) ham o'z fikrlarini bildirishgan.

Hayvonlarning organizmi har doim atrof muhitning har xil omillari ta'sirida bo'ladi. Jumladan iqlim, ekologik holat, radiatsiya, yashash sharoiti (saqlash usuli, joylashtirish zichligi, guruh hajmi, binodagi mikroiklim va boshqalar) oziqlantirish darajasi va tipi, ozuqaning iste'molga tay'irlash usuli, ratsionning biologik to'laqiymatligi va boshqalarga aloqador bo'ladi. S.I.Payashenko va boshqalar (1979), Sh.A.Akmalxonov va boshqalar (2001), L.K.Ernst (2008).

I.Maqsudov [2010] ma'lumotlariga ko'ra, sigirlardan turli mulk (fermer) shaklidagi xo'jaliklardan oqilona foydalanish, ulardan uzoq muddat yuqori mahsuldorlik va podani qayta tiklash qobiliyatini saqlab turishni ta'minlaydi.

Bu borada qator tashkiliy va zootexnikaviy tadbirlar majmuasi bo'lib, ularning har bir fermer xo'jaligi yo'nalishi, naslchilik ishining xolati, ozuqa zaxiralari, qabul qilingan sut ishlab chiqarish texnologiyalariga binoan farqlanishi mumkin.

Sermaksud sigirni o'stirish bir muammo, undan samarali foydalanish esa katta mas'uliyat talab etadi.

Birinchi navbatda g'unajinlarning tug'ishi fermer xo'jaliklarida 27-30 oyda kechishi me'or hisoblanib, u muayyan xo'jalikda urg'ochi tana va g'unajinlarni o'stirish jadalligiga bog'liq.

Urg'ochi tana va g'unajinlarni kerakli miqdorda, sifatda o'stirib, sigirga ko'chirish poda tarkibida sigirlar nisbatini andoza talablarida (40-50 %) bo'lishi, sigirlar tarkibini o'z vaqtida almashtirish (puchak qilish) natijasida ularning mahsuldorlik va nasl xususiyatlari tinmay yaxshilanib borishini ta'minlaydi. Erta




tuqqan (27-28 oy) sigirlardan xaèti davomida ko'proq sut va buzoq olishning mumkinligi isbotlangan.

Shu boisdan podadagi sigirlar soniga nisbatan 18-20 % g'unajin o'stirish, sigirlar podasini har 5-6 yilda to'liq yangilash, podani sermaxsul I tug'im sigirlar bilan to'ldirish evaziga, qari, kasal, qisir, kammaxsul sigirlarni podadan chiqarib, natijada yildan-yilga mahsuldorlik ko'payib sut ishlab chiqarish samaradorligi ortib boradi. Shu boisdan xo'jalikda qabul qilingan ishlab chiqarish jaraèniga qarab, agarda urg'ochi tana va g'unajinlar xo'jalikni o'zida o'stirilsa kamida podadagi sigirlar soniga nisbatan 30-35 % 1 èsh-gacha, 25-30 % 1 èshdan katta nasldor urg'ochi tanalarni o'stirishni taqozo etadi. Sut ishlab chiqarishga to'liq ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida buzoqlarni sut davridan keyin ixtisoslashgan urg'ochi tana va g'unajinlarni o'stirish, erkak buzoqlarni esa o'stirish va burdoqilash xo'jaliklariga sotish natijasida podada 80-85 % gacha sigirlarni saqlab ko'p va arzon sut ishlab chiqarish mumkin.

Sigirlardan xo'jalikda foydalanish davomiyligi qabul qilingan texnologiyaga bog'liq.

An'anaviy usulda sut ishlab chiqarish joriy qilingan fermer xo'jaliklarida sigirlardan foydalanish muddatlari davomiyroq bo'lib, 6-7 laktatsiyadan keyin puchak qilinsa, jadal texnologiyaga asoslangan fermer xo'jaliklari (Isroil, g'arb mamlakatlari texnologiyasi) da sigirlardan imkoniyat darajasida foydalanish orqasida organizm zo'riqishi natijasida podadan ertaroq 4-5 laktatsiyadan keyin puchak qilinadi.

Har qalay barcha xolatda xam sigirlar podasini jadal to'ldirish uning sifat va mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etadi. Ba'zi hollarda sigirlar qatoriga ko'chirilgan hayvonlardan noto'g'ri foydalanish natijasida I – II – laktatsiyalarida èq puchak qilib yuboriladi, oqibatda podada voyaga etgan (3-6 tug'im) sigirlar nisbati kamayishi evaziga o'rtacha bir sigirdan sog'ib olingan sut miqdori kamayib ketadi. Chunki èsh va qari sigirlar nisbatini me'èrdan ortishi podaning o'rtacha mahsuldorlik ko'rsatkichlarini pasayishiga sabab bo'ladi,



shaxsiy (individual) rivojlanish qonuniyatiga ko'ra voyaga etgan sigirlar mahsuldorligini gullab yashnagan davri kuzatiladi.


Shuning uchun podaga yangi kiritilgan sigirlarni nazorat qilish, ularni me'orda oziqlantirib, to'g'ri saqlab, ilg'or usullarni qo'llagan xolda sog'imni tashkil qilish kerak.

Afsuski ko'pchilik fermer xo'jaliklarida 1 tuqqan sigirlarga etarlicha e'tibor bermaslik, noto'g'ri foydalanish natijasida mahsuldorligini pastligini pesh qilib podadan asossiz –chiqarilishi natijasida 3 yillik sarflangan harajatlar qoplanmay, sut ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir muayyan sharoitda sigirlarni safdan chiqish sabablarini obdan tahlil qilib texnologik jara'nlardagi nosozliklarga bar-xam berish choralarini ko'rish kerak.

Fermer xo'jaligining poda tarkibi andoza talablariga javob berishi kerak, ya'ni urg'ochi tanalar o'z vaqtida qochirilib, g'unajinlar sigirlar qatoriga ko'chirilishi, erkak tanalar esa 18-20 oyligigacha jadal o'stirilib, burdoqilanib tirik vaznini 400-450 kg qilib go'shtga topshirilishi zarur. Aks holda urg'ochi tanada sigir, erkak tanani go'shtga o'stirish talablar darajasida kechmaslik (200-300 g kunlik vazn o'sishi) natijasida 3 va undan katta e'shdagi urg'ochi tana va novvoslarni poda tarkibida qolishi, sigirlar nisbatini pasayishi, sut va go'sht ishlab chiqarish xajmlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bunday podalarda hech qachon chorva mahsulotlari ishlab chiqarishdan foyda ko'rilmaydi.

Shu bois har qanday qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligining poda tarkibini tahlil qilish asosida texnologik ja-ra'nlardagi kamchiliklarni ilg'ab olish mumkin.

Umuman olganda sigirlardan oqilona foydalanish birinchi navbatda ularning podani qayta tiklash xususiyatlari bilan belgilanadi, shuning uchun sigirlarni tug'ishdan – tug'ishgacha davri bir yil (365 kun) bo'lib, shu davrning 305 kunini laktatsiya va 60 kunini tug'ishdan oldingi bug'oz sigirlarni dam olish davri tashkil etadi. Tug'ishlar oralig'ining asossiz uzayishi sigirdan xa'eti davomida kam sut va buzoq olishga sabab bo'lib, bunday sigir iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi e'ki har bir mahsulotsiz kun fermer uchun zarar keltiradi.



Podani qayta tiklashda sigir va urg`ochi tanalarni o`z vaqtida va sifat urug`lantirish sog`lom buzoq olishning ilk sharti hisoblanadi.

Sog`lom, o`rtacha semizlikdagi sigirlar, urg`ochi tana va buqadagina jinsiy faoliyat me`èrida kechib tuxum va urug` hujayralari to`la qonli bo`lib, otalanish fiziologik me`èrlarda o`tib, xa`etchan murtak xosil bo`ladi.

Sigir va urg`ochi tanalarni qochirish paytida o`rtacha semizlikda bo`lishi talab etiladi, shuning uchun sigirlar tuqqandan keyin ko`p xollarda tug`ish jaroxatlari `eki etarli oziqlantirmaslik natijasida oriq bo`ladi. Bunda sigirlarni o`rtacha semizlik darajasigacha qo`shimcha ozuqalar berib oziqlantirish kerak, aks holda urug`lantirish samarasiz yakunlanishi `eki to`la qiymatga ega bo`lmagan murtak hosil bo`lishi mumkin.

Urg`ochi tanalar ham me`èr talabidagi tirik vazn, `esh va semizlikka ega bo`lish kerak.

Nasldor buqalar to`la qiymatli detallashtirilgan ratsionlarda oziqlantirib o`rtacha (zavod) semizligida bo`lib, tartib asosida urug` olinishi kerak. Buqalardan tartibsiz foydalanish, to`la qiymatli oziqlantirmaslik ularning jinsiy faoliyatini susaytirib voyaga etmagan urug`lar ajralib otalanish natijalariga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Xar bir muayyan fermer xo`jaligi qoramolchilikning iqtisos-lashishi (sut-go`sht), naslchilik yo`nalishi, qabul qilingan texnologiyaga binoan u, `eki bu qochirish usulini tanlab olish mumkin.

Qochirish erkin, qo`ldan va sun`iy yo`l bilan o`tkaziladi.

Qo`ldan qochirish – bu usul ko`pchilik fermer va shaxsiy `erdamchi xo`jaliklarida qullaniladi. Kuyukkan sigirlar kuniga ikki marta ertalab va kechqurun ajratilib, juftlash rejasida belgilangan buqa bilan qochiriladi. Qo`ldan qochirishda bir buqa bilan 80-100 bosh sigir va urg`ochi tanani qochirish mumkin, shu bilan birga sigirlarni qochirishdan oldin mutaxassis tomonidan jinsiy a`zolari nazorat qilish natijasida turli yuqimli va jinsiy kasalliklarni oldini olib, zootexnika hisoblarini aniq yuritish imkonini beradi.



Bir buqaga sigir va urg`ochi tanalar sonini ortishi buqalarga bo`lgan talab biroz kamaytirib, asosan sifatli buqalardan foydalanish imkonini beradi va iqtisodiy jihatdan samaraliroq hisoblanadi.

Sun`iy urug`lantirish – mulk shaklidan qa`tiy nazar barcha xo`jaliklarda amalga oshirish zarur bo`lgan usul hisoblanadi.

Fan, texnika yutuqlari sun`iy urug`lantirish imkoniyatlarini chegarasiz ekanligiga sharoit yaratdi. Dun`ning hojlagan burchagidagi buqa urug`i bilan sigir `eki urg`ochi tanani urug`lantirish imkoniyati mavjud. Bu tadbir dun` genofondidan to`liq foydalanib qisqa muddatda sermahsul podalar yaratish imkonini beradi.

Fermer xo`jaligida buqa bilan qo`ldan qochirilganda bir bosh sigirni qochirish 33647,5 so`mga tushgani holda sun`iy urug`lantirilganda esa bir doza urug` narxi 650 so`m va urug`lantirish harajatlari bilan 1500 so`mni tashkil etib bir kuyukkanda ikki marta qochirish 3000 so`mga tushadi (F. Nazarov, 2007).

Fermer xo`jaligida sigir va urg`ochi tanalarni to`liq sun`iy urug`lantirish yuzlab ming so`m pulni tejash va podani jadal tako-millashtirish imkonini beradi.

Su`niy qochirish natijasida fermer xo`jaligida o`tkir yuqumli va jinsiy kasalliklarni tarqalishi xavfi tugatiladi, chunki barcha qochirish jihozlari sterillangan bo`lib bunga imkon bermaydi.

Bu usulda zootexnika hisob – kitoblarini yuritish imkoni mavjud, chunki barcha respublika “Nasl xizmat” uyushmasi tarkibidagi naslchilik korxonalarida saqlana`etgan chuqur muzlatilgan urug`lar kelib chiqishi bo`yicha to`liq ma`lumotlarga ega.

Barcha bunday urug`lar qaysi mamlakatda olinganligiga qaramasdan avlodlarning sifati bo`yicha baholanib “Yaxshilovchi” deb tan olingan va xalqaro nazoratdan o`tib ruxsat etilgan buqalar urug`i hisoblanadi, hamda ular to`liq sertifikatlangan.

Bir mashhur buqa urug`i bilan minglab sigir va urg`ochi tanalarni qochirish keng qamrovli selektsiya natijasida sermahsul monand (bir xil) podalar yaratish imkonini beradi.



Sigir va urg`ochi tanalarni qochirishda ularning yil davomida jinsiy tsiklining tuxtovsiz takrorlanishi qo`l keladi, èki yil davomida mavsumlar bo`yicha buzoq olish imkoniyatini beradi.

Urg`ochi tana va sigirlar jinsiy faoliyati davriy bo`lib har 21 (± 3) kunda tuxumdonda follikula èrilib tuxum hujayrasi ajralib chiqadi. Bu jaraèn 24-36 soat davom etib jinsiy kuyukish deb ataladi. Bir jinsiy kuyukishdan ikkinchi jinsiy kuyukishgacha davr (kun) jinsiy davr (tsikl) deyiladi.

Sut davrida naslli urgochi buzokdar 550-800 g kunlik vazn oshishiga erishish kerak. Unda voyaga etgan sigirlar vazni inobatga olinadi (400-450, 500-550 za 600-650 kg). Naslli bukachalar esa kuniga 700-950 g vazn kushishi kerak.

Sut davrida buzoklarning 3 oygacha 1 kg vazn ortishiga 3,5-4,0 EOB, 4-6 oylikda esa 5-6 EOB sarflanishi kuzda tutiladi. 1 EOB birligida 3 oygacha xazmlanuvchi protein, 103-129 g 4-6 oylikda 124-165 grammni tashkil etadi.

Birinchi marta xar 2 soatda, keyin 3 maxal 4 kg, 90 kunda 410 l sut ichiriladi.

2 oylikkacha buzoklarning oshkozoni yaxshi rivojlanmagani sababli mikrob oksillar sintezlanmaydi. Shuning uchun biologik tula qiymatli oksillar ozukalar bilan etkazib berilishi shart (sut) Oshkazon rivojlanishi bilan katga korin protein manbai xisoblanadi.

Buzoklarda sut davrida ozukalarda kand va egni nazorat kilib borish kerak. 3 oylikkacha ozukalar tarkibida klechatka 6-12%, 4-6 oylikda 16-18 % bulishi. ratsionning kuruk moddasida kand 15-16,5 va 8-9,5 % bulishi .talab etiladi. –Eg esa 1 oylikda 24,1 foizdan 6 oilikda 5,4 foizgacha kamaytiriladi.

Buzoklarda mineral modtsalarga talab yukori buladi. Ularning etishmasligi usish va rivojlanishga salbiy ta`sir kursatib modda almashinuvi buzilishi va suyak ka- salliklariga sabab buladi. 1 EOB ga 6-8 g kal`tsiy, 4-6 g fosfor va 3-6 g osh tuzi tugri keladi. Vigaminlar bilan ta`minlash katta axdmiyatga ega. 6 oylikkacha buzoklarning 1 kg tirik vazniga 400 XB A vitamin, 15 XB D vitamini va 154 mg atrofvdada E vigamini beriladi.



Sut yo'nalishidagi urgochi buzoqlarni qish faslida oziqlantirish

Yoshi (dekada)	Tirik vazni, kg	Sut kg		Pichan. kg	Silos, senaj, kg	Em, kg			Mineral kushimchalar, g	
		Yogli	Yogsiz			Ildiz meva, kg	Don, yormasi	Omixta sm	Osh tuzi	Ozuka fosfati
1 dekada		6	-	-	-	-	-	-	-	-
2		6	-	Urgatish	-	-	0,1	-	5	5
3	52	6	-	-II-	-	Urgatish	0,4	-	5	5
Jami 1 oy		180	-	-II-	-	-	5	-	100	100
4		2	4	0,2	-	0,2	-	0,6	10	10
5		-	6	0,3	Urgatish	0,3	-	0,9	10	10
6	72	-	6	0,5	-II-	0,5	-	1,1	10	10
Jami 2 oy		20	160	10	-II-	10	-	26	300	300
7		-	6	0,7	0,5	0,5	-	1,1	10	15
8		-	6	1,0	1,0	1,0	-	1,2	10	15
9	92	-	5	1,3	1,5	1,5	-	1,2	10	15
Jami 3 oy		-	170	30	30	-	-	35	300	450
10		-	5	1,5	2,0	1,5	-	1,2	15	20
11		-	2	1,5	2,0	1,5	-	1,4	15	20
12	113	-	-	1,5	3,0	1,5	-	1,6	15	20
Jami 4 oy		-	70	45	70	45	-	42	450	600
13		-	-	2,0	3,0	1,5	-	1,5	20	20
14		-	-	2,5	4,0	1,5	-	1,4	20	20
15	134	-	-	3,0	5,0	1,5	-	1,3	20	20
Jami 5 oy		-	-	75	120	45	-	42	600	600
16		-	-	3,0	5,0	1,0	-	1,0	20	25
17		-	-	3,5	6,0	1,0	-	1,0	20	25
18	155	-	-	3,5	7,0	1,0	-	1,0	20	25
Jami 6 oy		-	-	100	180	30	-	30	600	750
Jami 6 oyda		200	400	260	400	160	5	1,75	2,35	2,8

Og'iz suti davridan keyin buzoklar maxsus oziqlantirish sxemasi asosida parvarishlanadi. Oziqlantirish sxemasi tugilgandan 6 oylikkacha oziq k,kal ni dekalarga (10 kun) bulinishini ifodalaydi. Turli oziqlantirish sxemalari fermer xujaligining yunalishi, ozuka zaxiralari, ustirish jadalligi, sut berish davomiyligi, xujalik sharoitlari va buzokdan kelajakda maksadli foydalalanishga karab farkanadi. Naslli erkak va urgochi buzoklarga aloxida oziqlantirish sxemalari kullaniladi.

6 oylikda 130-175 kg tirik vaznga 180-350 kg.kaymogi olinmagan, 200-600 kg kaymogi olingan sut sarflashni nazarda tutadi



Buzoklar fermer xujaligida fakat kaymogi olinmagan sut bshgan bokilsa 2 oygacha berish kerak. Agar kaymogi olinmagan va kaymogi olingan (obrat) bilan bokilganda kaymogi olinmagan sut 1,5-2 oygacha, obrat esa 4-5 oygacha ichiriladi.

2-dekadada (11-kundan) buzoklar sifatli beda pichani eyishga urgatiladi. 3 oylikda 1,3 kg ga, 6 oyligida 3,5 kg ga etkaziladi Osh tuzi, bur, pretsipitat, ozuka fosfatidlari beriladi. 15 kunligidan em eyishga urgatila boshlanadi.

2-3-dekadalarda don yormasi (suli, arpa, b\tdoy) 100-400 g beriladi.

4-dekadada (31-kundan) kaymogi olingan (obrat) bera boshlanadi, dastlab kamrok, keyingi dekadalarda kupaytiriladi. Shu paytda unga tent xolda kaymogi olinmagan sut kamaytiriladi.

4-oyga borib buzokka 1 kecha- kunduzda 1,6 kg em bsriladi.

Sut davrining birinchi oyi- da maxsus startyor omixta emi bsriladi. Uning tarkibida kuyidagi ozukalar: qobiksiz arpa -51,5, quruq sut -18,0, shrot -14,0, ozuqa achitkilari - 5, ut talkoni -4,0, kand -4,0, ftorsiz fosfat. suyak uni -0,65, bo'r -1,35, osh tuzi -0,5, premiks -1-1,0. 1 kg omixta emda 1,26 EOB va 180 g xazmlanuvchi protein mavjud.

1 oylikdan 6 oylikkacha buzokdarga sanoat tomonidan KK- 62 omixta emi chikariladi, uning tarkibi donlar, kepak, oksilli kushimchalar, shrot, ut talkoni, mineral kushimchalar va premiks P-62-1 dan iborat.


5-dekadada buzokdar silos va senaj eyishga urgatiladi. 3 oy- ligida 1,5 kg, 6 oyligida 7 kilo- grammgacha beriladi. Yoz faslida buzoklarni oziklantirish sxemasiga pichan, silos, senaj, ildiz- mevalar urniga kuk ut kushiladi. Uni eyish 2-dekadadan boshlanadi, 3 oyligida 7, 6-oyligida 20 kg kuk ut bsrish mumkin. Yoz paytida sifatli kuk ut berish evaziga kish fasliga nisbatan 30 foizgacha emni kamaytirish mumkin. Buzoklar kuk utni iste`mol kilishi davrida ich o`tshigi oldini olish uchun utlarni biroz so`litib bsrish kerak.




III.bob ASOSIY QISIM

3.1. Qora-ola mollarning 4-6 oylik urg'ochi buzoqlarning o'sish sur'ati

Tajriba o'tkazilgan o'rni: Quyi Amudaryo xududa joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumani «Qiyat» fermer xo'jaligida. Tajriba amalyoti o'tkazildi Fermer xo'jaligi boshlig'i Sh.Eshjanov. Xo'jalikda 120 bosh qoramol mavjud. Tajriba o'tkazishda ona sigirlarni yaylovda boqish va bog'lab boqish usullari qo'lanilishi quyidagi sxema bo'yicha olib borildi.



Tajriba uchun sut ichish yoshidagi uch olti oylik buzoqlar tanlab olindi va buzoqlarning onalari (n=8) yaylovda boqildi va shu sondagi ona sigirlar dexqopnchilik xududida, ekinzorlar orasidagi o'tloq joylarda buzoqlarga yaqin joylarda bog'lab boqildi shu bois buzoqlarning sut emishi kuniga birinchi uslubda ikki marotaba, ikkinchi uslubda uch marotaba sigirlar sog'ilib buzoqlarning sut



emishiam shunga bog'liq ko'paytirildi. Onalari ikki va uch marotaba sog'ilga buzoqlarning o'sish su'rati kuzatilib borildi va quydagicha natijalar olindi (1-jadval).


1- jadval

3-6 oylik buzoqlarning sut ichish davridagi o'sish sur'ati

Ona sigirlar	Yaylovda boqish (n=8)			Bog'lab boqish (n=8)		
	4 oylik vazni kg	5 oylik vazni kg	6 oylik vazni kg	4 oylik vazni kg	5 oylik vazni kg	6 oylik vazni kg
Buzoqlar♀						
Sut emish mahali	2	2	2	3	3	3
Uch oylikdagi tirik vazni	56.5	65.3	75.8	59.1	70.8	81.5
To'rt oylikdagi tirik vazni	65.3	75.8	84.6	70.8	81.5	93.7
Absolyut o'simi kg	8.8	10.5	8.8	11	11	12
Kunlik o'simi g	293.3	335	293.3	366.6	366.6	400
Besh oylikdagi tirik vazni	75.8	84.6	92.3	81.5	93.7	104.2
Tirik vazni	84.6	92.3	101.2	93.7	104.2	115.0
Absolyut o'simi kg	8.8	7.7	8.9	12.2	10.5	10.8
Kunlik o'simi g	293.3	256.6	296.6	406.6	335	336
O'dsish davridagi (90kun) absolyut o'sim	-	61.6	71.2		84.0	86.4
Go'sht chiqimi, %	-	33.5	37.6	-	43	45
Go'sht baxosi, so'm	-	737.000	827.200	-	946.000	990.000
O'stirish uchun ketgan harajat, so'm	-	500.000	500.000	-	500.000	500.000
Rentabellik darajasi	-	23.7	32.7		44.6	49.0
O'rtacha %		28.2			46.8	

Yaylovda boqilgan birinchi gurux sigirlar buzoqlari birinchi oy boqilganida to'rt oylik yoshga yetganida o'rtacha tirik vazni 56.5 kg-ni tashkil qildi. Ularni o'rtacha absolyut o'simi 8.8 kg, kunlik o'simi esa 293.3 g bo'ldi.

Besh oylik yoshida birinchi gurux qora-ola mol buzoqlari o'rtacha 7.7 kg absolyut vazin to'pladi, kunlik o'sim 256.6 g-ni tashkil etdi. Bu davrga kelib u buzoqlarning o'rtacha vazni 92.3 kgni tashkil etdi.



Yaylovda boqilgan qora-ola zotining olti oylik yoshdagi buzoqlari o'rtacha vazini 101.2 kg, absolyut o'sish o'rtacha 8.9 kg kunlik o'simi 296 g-ni tashkil etdi.

Ikkinchi gurux ona sigirlar buzoqlarga yaqin joyda bog'lab boqilganda ularni uch oylik dastlabgi, tirik vazndagi birinchi guruxdan farqi 2.6 kg bo'lgan edi.

To'rt oylik yoshga kelib tirik vazni bo'yich farq o'rtach 9.1 kg tashkil qildi.

Shuningdek ikkinchi gurux sigirlarning buzoqlari absolyut o'sim bo'yicha o'rtacha 3.4 kg, kunlik o'sim esa 406.6 g-ni tashkil qildi.

Birinchi gurux buzoqlari onalari uzoq yaylovlarda boqilishi sabab faqat ikki marta sog'im paytida sut ichish imkonoyatga ega bo'lganligi uchun qora-ola zotli sigirlarni yaqin o'tloqlarda bog'lab boqilishi uslubda ularning buzoqlari uch marotaba ona suti bilan oziqlanadi va ularga qo'shimcha birinchi gurux buzoqlari bilan teng oziqlantirildi shu bois uch marotaba sutichish imkoniyati bo'lgan buzoqlar guruxning o'rtacha kunlik o'simi 335 g-ni tashkil etdi tirik vazni esa birinchi guruxdagi tengdoshlardan farqi o'rtacha 9.1 kg-ni tashkil etdi.

Olti oyligida birinchi va ikkinchi gurux buzoqlarining o'sish tezligidagi farqlar aniq namoyon bo'lmoqda va tirik vaznida o'rtacha 13.8 kg absolyut o'simda 19.7 g-ni kunlik o'simda o'rtacha 39.4 g-ni tashkil qilmoqda. Shundan ko'rishimizga bo'ladiki yaylovda boqqanda ko'ra bog'lab boqishimiz yaxshi natija bermoqda. Shuning uchun qorqmasdan aytishimiz mumkinki bog'lab boqqan foydali deb.




3.2 Qoraola zotli buzoqlarning jinsiy va fiziologik rivojlanishiga ozo'qaning ta'siri

Sut koramolchiligini rivojlantirish mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni echishning ajralmas kismi bulib xisoblanadi. Sut etishtirishni kupaytirish xayvonlarni tugri oziklantirish, naslchilik ishini tugri yulga kuyib,xayvonlarni irsiy imkoniyatlarini ruyobga chikarish.yangi texnologiyalarni joriy etish yuli bilan amalga oshiriladi.

Sut koramolchiligi Uzbekistonda uz xususiyatlariga ega. Uzbekistonda sugoriladigan erlar asosan galla va paxtaga ajratilganligi, almashlab ekishga tulik utilmaganligi, su`niy yaylovlar tashkil kilishning kiyinligi,tez uzgaruvchan iklim, kuyosh radiatsiyasi soxa muammolaridan xisoblanadi.

Xozirgi paytda Uzbekistonda sut, sut-gusht va gusht yunalishidagi koramollar urchitiladi.Ularning aksariyatini sut yunalishidagi kora ola va kizil chul



zotiga mansub koramollar tashkil etadi, keyingi ularning golshtin va angeln zotlari bilan duragaylari xam urchitilmokda.

Respublikamizning kupchilik xujaliklarida podani tuldirish uchun muljallangan urgochi tana va gunojnlarni ustirish me`yorda tashkil kilinmasligi sigirlar podasini yangilanish, podalar takomillashiga maxsuldorligini oshishiga tugonok bulib ishlab chikarilgan sut tannarxini yukori bulishiga sabab bulmokda.

Sut koramolchiligini rivojlantirishning asosiy omillaridan bulib podani tuldiruvchi urgochi tanalarni ustirishni takomillashtirish sigirlar podasini sermaxsul birinchi tugum sigirlar bilan tuldirishni takoza etadi. Bu muammo Uzbekistonda turli xududlarning iklim, ozika, xujalik imkoniyatlari darajasida xal etilmagan.

Turli xujaliklarda eskirgan, oddi urgochi buzok va tanalarning biologik imkoniyatlarini inobatga olmagan oziklantirish va saklash usullarini kullashlari natijasida, urgochi tanalarning kochirish yoshida vazni kichik, jussasi bakuvvat bulmasligi ustirilgan sigirlarning vazni kam, maxsuldorligi past bulishiga sabab bulmokda.

Shu boisdan padani tuldirish uchun ajratilgan urgochi buzok va tanalarni ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan ilgor texnologiyalar erdamida tarbiyalashni talab etadi.

3.3 Podani tuldirish uchun urgochi naslli buzoklarni tanlash

Dastlab podani tuldirish uchun urgochi naslli buzoklarni tanlashdan boshlash kerak. Tanlash genotipi buyicha podani tanglashishiga va irsiy imkoniyatlarni mustaxkamlanishini ta`minlaydi. Podani tuldirish, shunday xayvonlarni tanlash kerakki, ular albatta podadan chikarilgan xayvonlarga nisbatan maxsuldorligi yukori bo`lsin. Iloji boricha podadan chikarilishi kuzda tutilgan sigirlar soniga nisbatan urgochi tanalarni dastlab tanlashda ommaviy tanlash asosida ishlab chikarish muammolarini xal etishga karatilmogi kerak.

Ustirish davomida usishdan kolgan, tana tuzilishi nuksonlari bor va birinchi tugimda kam sut bergan xayvonlar podadan chikarib boriladi.



Xozircha bizning fermer va shirkat xujaliklarida podada sigirlar etishmasligini inobatga olib barcha urgochi xayvonlarni ustirishga koldirib, kochirib,tukkanidan keyin kiska laktatsiya asosida tanlashni tashkil kilgan ma`kul. Bunday usul fakat sigirlar sonini kupaytiribgina kolmasdan xujalikda buzok olishni kupaytirishga ijobiy ta`sir kursatadi.

Odatda podani tuldiruvchi urgochi tanalar jadal ustirilganda ularning 25-30% zootexnika va veterinariya sabablarga kura puchak kilinadi. Ular kochib tukkanidan keyin esa 32-34% maxsuldorligi kamligi uchun puchak kilinadi. Shuning uchun podani tuldirishda urgochi tanalarni ustirganda nafakat sigirlarni sut maxsuldorligini oshirishni, balki podada sigirlar nisbatini kutarishga xam dikkatni karatish kerak.

Buzoklarni tanlashda 90 kunligida vazni guruxdagi urtacha tirik vaznining 70-80% tashkil kilganda ular usishdan kolgan xisoblanadi va guruxdan puchak kilinadi.

Buzoklarni yakuniy tanlash uzok davom etib, usishdan kolgan va kasallarini podadan chikarish kerak. Shunday kattikkullikni urgochi tanalarni ustirishning keyingi boskichlarida xam amalga oshirish kerak.

Ustirish uchun buzoklarni tanlashda ularning tana tuzilishi inobatga olinadi,chunki tana kism va a`zolarining rivojlanishi xayvonlar maxsuldorligi va salomatligi bilan boglik. Bu urinda buzoklar jussasi, tana ulchamlariga e`tibor karatiladi.

Podani tuldiruvchi urgochi tanalarni ustirish jarayonida shaxsiy rivojlanish konuniyatlariga kat`iy rioya kilish shart: rivojlanishning davomiyligi,teng emasligi, rivojlanishning korrelyatsiya va integratsiyasi, adaptatsiyasi.

A.P.Beguchev (1971) ma`lumotlariga karaganda turli tukima va a`zolar uziga xos rivojlanadn, shuningdek tana, shakllanishining uzgarishi va tanada oksil va yogning tuplanishi xayvon jinsi, yoshi, xamda oziklantirish tipiga boglikdir.

Yaxshi sharoitda ustirilgan buqa va sut yunalishidagi urgochi tanalar 12-14 oylikkacha tanada asosan oksil moddalarini, kam mikdorda yog tuplaydi. Undan keyin tanada yog xosil bulishi jadallashib urgochi tanalarning urchish xususiyatlariga salbiy ta`sir kursatadi. Shu boisdan urgochi buzoklar va tanalar



usish va rivojlanishini ustirish usullarini kullab ularning tana xajmi va tirik vazni uzgartirishga erishish mumkin.

Kupchilik tajribalar sigirlar sut maxsuldorligini shakllanishida tanalarning birinchi kochirish yoshiga nisbatan tirik vazni kuprok axamiyatga ega ekanligi isbotlangan.

Kupchilik tadkikotlar shundan darak beradiki, birinchi tukkada yirik zotlar gunajinlarining yoshi 24-28 oy, vazni esa 470-550 kg bulgani ma`kul.


Birinchi tugimni sigirlarning 24-25 oyligida utkazish biologik jixatdan asoslangan, iktisodiy samarali xisoblanadi. Bu esa urgochi tanalarni ustirishni jadallashtirishni takoza etadi, yoki ular 15-16 oyligida podadagi voyaga etgan sigirlar tirik vaznining 65-70% tashkil etsin.

Yangi tugilgan buzokka karash - uning tugri ustirishdagi dastlabki kadam xisoblanadi. Yangi tugilgan buzok artiladi, xomila oldi suyukliklaridan tozalanadi, juni kuritiladi, kindigi dizenfektsiya kilinadi. Shundan keyin u profilaktoririyaga utkaziladi. Buzok tugilgandan keyin 2 soat ichida uning tirik vaznidan kat`iy nazar 1,5-2 kg ugiz suti ichirilishi kerak.

Profilaktoriya davrning asosiy xususiyati buzok dastlab ugiz suti, keyinchalik esa yogli sut ichadi. Bu davrda buzoklarni yakka kataklarda saklash ularning salomatligi garovi bulib sut ichirishni osonlashtiradi. Ugiz suti bu davrda yagona ozika bulib uz tarkibida usish va salomatligini saklash uchun zarur moddalarga ega. Yogli sutga nisbatan ugiz suti tarkibida kuruk moddalar, oksil, yog, mineral moddalar ancha kup. Bundan tashkari ugiz tarkibida aloxida modda gamma-globulin saklaydi.

Birinchi 24 soat ichida buzoklarga sut eng kamida 1,5 - 2 l dan 3 marta ichirish tavsiya etiladi. Ikkinchi marta ugiz suti buzokka birinchi ichirishdan keyin tugilgandan 6 soatdan keyin ichirilishi shart. Bu davrda albatta buzoklar ugiz suti va sutni onalaridan olishlari kerak. Bu davr 15 kun davom etadi. Davr oxirida buzoklarni 2 maxal sut ichirishga utkazgan ma`kul.

Profilaktoriya tugrik bulimi tarkibiga kirib u barcha zoogigienik talablarga javob berishi kerak. Yil davomida xarorat 10-15 S nisbiy namlik 75% gacha bulishi ta`minlanishi kerak. Bu bulimda yakka kataklar 2 kator joylashtrilib



urtasida yulak buladi. Katak devorlari temir,taxta yoki plastik oynadan bulishi mumkin,tagi esa tirkishli buladi, chunki axlatlar doimiy pastga tushib turishi kerak. Katakning oldi kismida oxur, orka kismida esa eshik joylashgan.

Uzbekiston sharoitida buzoklarni yoshligidan boshlab profilaktoriya uylarda ustirish imkoniyati bor. 100 bosh koramolga urtacha o'n olti profilaktoriya uyi tugri keladi. Uychalar bir-biridan 70-100 sm oralikda joylashtiriladi. Bir uychadan bir yilda 6 ta buzok utadi.

Uycha katak bulib (fanerdan bulsa maksadga muvofik) usti yopilgan buladi. Ulchamlari: uzunligi 220 sm., eni 120 sm, oldi tusik balandligi 120 sm.orkasi 110 sm. Uychaning ichki kismini polietelin plenksi bilan koplab kuysa faner devor xul bulmaydi.

Uychada dagal va mineral ozikalarga oxur, xamda sut ichirish uchun moslama urnatiladi. Uycha tagiga 25-30 sm kalinlikda kirindi yoki 6-7 sm kilib maydalangan somon yoki poxol tushaladi. Keyinchalik xar 2-3 kunda 1-2 kg somon tushama solib boriladi. Kuruk tushama, elvizakning yukligi, buzoklarni uy-profilaktoriyalarda ochik xavoda ustirish imkonini beradi.

Uychada oldingi devorning bulmasligi bemalol kirib-chikib yurish imkonini beradi. Buzok erkin yayrashi uchun uychaning oldingi kismiga 180-120 sm sim tur yoki taxtadan tusiq kilib oldingi kismidan eshik kuyiladi. Yomgir paytida uychalar taxta ustiga kuyiladi, u uychaning xar tomonidan 10 sm chikib turishi, taxtalar orasi 1,5-2 sm ochik kolsin.

Qish paytida uychaning oldingi kismi mato bilan yopib kuyilishi mumkin. Xarorat - 10⁰ C oshib shamol bulsa mato yopib kuyiladi, lekin buzok bemalol kirib-chikib turaveradi. Agar xarorat - 10⁰C past bulsa mato ochib kuyiladi, aks xolda uycha ichida zararli gazlar mikdori oshib ketib buzok sogligiga salbiy ta'sir kursatishi mumkin.

Ugiz suti tarkibida kupincha vitaminlar va mikroelementlar etish maydi, bunda buzok konini tekshirib ishonch xosil kilsa buladi. Bunday paytlarda tugilganidan boshlab 1,5-2 oygacha 6-7 kunda bir marta bir boshga 5 ml trivitamin



va I ml vitamin V_{12} ni venasiga yuborish, mikroelement sifatida tuzlar yigindisida 1 kunda 1 marta berish kerak.

Buzoklarni oziklantirish ulardan kuniga 650-700 g kushimcha vazn olish yuzasidan amalga oshiriladi. 10-15 kungacha buzok fakat ona ugizi va yogi olingan suti bilan bokiladi, keyin aralash sutga utkaziladi. Xar bir buzokka aloxida rakami yozilgan sut ichirish idish va surgichi ajratiladi, u rakam uy profilaktoriy rakamiga tugri kelishi kerak.(U. Nosirov va boshkalar,1989). Aralash yogli sut albatta soglom sigirlardan olingan bulishi kerak.

2- Jadval

Pro'filakto'riya uychalarida buzoqlarni 60 kunligiga qadar oziqlantirish

Yoshi , kun	Kish faslida					Yoz faslida				
	Yogli sut	Pichan kaynatmasi	Omixta em	Beda pichan	Oshtuzi	Yogli sut	Pichan kaynatmasi	Omixta em	Kuk ozikalar	Oshtuzi
2-10	5	ur-sh	ur-sh	ur-sh	5	5	0,5	ur-sh	ur-sh	xoxlag
11-20	7	0,5	-	-	xoxlag	7	0,5	0,2	-	-
21-30	7	0,5	0,4	0,5	-	7	0,5	0,2	0,4	-
31-40	6	1,0	0,4	0,7	-	6	1,0	0,3	0,6	-
41-50	6	1,0	0,5	0,8	-	6	1,0	0,4	0,8	-
51-60	5	1,0	0,6	1,5	-	5	1,5	0,5	1,2	-
58 kunda jami:	35,0	4,0	1,9	3,5	-	35,0	4,5	1,4	3,0	-



Buzoklar dagal ozikalarga (sifatli pichan, sulitilgan kuk beda) 10 kunlikda urgatiladi, dastlab sutkasiga 100-150 g dan berib, keyinchalik sekin oshirib boriladi, 2 oyligida 800-1000 g etkaziladi, 35 kunda buzok 35 kg pichan iste`mol kiladi.

Omixta emga buzoklar 10 kunligidan urgatiladi, ularga dastlab 100-150 g, keyinchalik uning mikdori bir oyligida 400-500 g, 2 oyligida esa 1000 g ga etkaziladi, 40 kun davomida 19 kg em iste`mol kiladi.

Albatta bu ratsionga ozo`qalar buzokning a`zolarining anatomik xolati va fiziologik faoliyatini inobatga olgan xolda amalga oshiriladi.

Naslchilik xujaliklarida sut davrida 350 kg yogi olinmagan va 330 kg kaymogi olingan sut beriladi.

Oddi xujaliklarda usish jadalligini inobatga olib yogi olinmagan sut mikdorini biroz kiskartirish mumkin.

Oddi xujaliklarda bir qismi yogli sutni sut almashtiruvchi xolida berish mumkin. (UzChITM ishlanmasi).

100 kg sut almashtiruvchisi tayyorlash uchun: paxta shroti 24-34 kg, arpa uni 25-27 kg, makkajuxori uni 38-35, achitkilar (kuruk) 5, beda uni 6, bur 1-1,5, tuz 0,6 kg. Ushbu aralashma kaymogi olingan sutda eritiladi unga suv, balik yogi, shakar, terramitsin va mikroelementlar kushiladi (kobalt xlorid, marganets sulfat, mis, temir, kaliy yod). Sun`iy sut AZM-0,8 kurilmasida tayyorlanadi. Texnologik jarayon kuyidagicha: aralashtirgichga 400 l suv kuyiladi (iloji brricha kaynak) unga shnek yordamida 100 kg omixta em solinadi. Aralashma 85-90°S isitiladi, 1 soat davomida aralashtirgich yordamida kuyiltiriladi. Keyin u 75-70°S xaroratga pasaytiriladi va 300 l kaymogi olingan sut kushiladi.

Yog kushimchalar, antibiotik, mikroelementlar va vitaminlar aralashmasi xarorati 50°S pasaygandan keyin kushiladi. Emulgator yordamida bir xil suyuklikka aylantiriladi, sovitilib buzoklarga ichiriladi.

Xar bir buzokka sut aloxida pakirda ichiriladi. Buzoklarga ichiriladigan sut, sut almashtiruvchisi, kaymogi olingan sut, yangi va toza bulib ichirish paytida birinchi oyda 30°S, ikkinchi oyda esa 30-35°S, keyingi oylarda 20-25°S bulsa bulaveradi.



Buzoklarning birinchi 40-50 kunligida bir kecha-kunduzda tugilgandagi ta'vazning $1/4-1/5$ miqdorida berilib, keyinchalik sekin kamaytiriladi. Buzoklarni oziklantirish uch maxal.

Kaymogi olingan sut buzoklarga 31 kundan boshlab ichiriladi .Buzok larni ovkat xazm kilish kobilyatini kuchaytirish maksadida sut ichirgandan 1 soat keyin kaynatib sovitilgan suv beriladi, ayniksa bu narsani bizning sharotimizda ezda esdan chikarmaslik kerak.

Buzoklarni yoshlik paytidayok em, dagal va shirali ozikalarni eyishga urgatish kerak. Bu tadbir ularning oshkozon-ichak tizimi xajmini kattalashishi va faoliyatini kuchayishiga olib keladi, bunday xayvonlar kelajakda sigir bulganida katta xajmdagi ozikalarni istemol kilib, xazm kilish natijasida kup sut berish kobilyatiga ega buladi. Bu paytlarida buzoklar oxurlarida doim yangi urilib biroz sulitilgan beda bulishi maksadga muvofikdir. Dagal shirali va em ozikalar 3 oylikkacha aravachalarda keltirib beriladi, kul bilan tarkatiladi.

Urgochi tanalarning 100 kg vazniga 7-12 oyligida 2,4-3,0 kg kuruk modda, 13-18 oyligida esa 2,1-2,5 kg sarflanadi, yoki I kg kuruk modda tarkibida 0,7-0,9 ozo'qa birligi bulishi kerak. 1 ozika birligiga 4 g fosfor,yoki I kg kuruk moddaga 2,8-3,0 g fosfor tugri kelishi kerak.

Urgochi tanalarning xazmlanuvchi proteinga bulgan talabini kondirish ularning jadal usishi va etilishini ta'minlaydi. Shu boisdan I ozika birligiga : 4-6 oyligida 117-105 g; 7-9 oyligida 100 g atrofida;10-18 oyligida esa 95-90 g bulishi maksadga muvofikdir.

Urgochi tanalar xayotini saklab turish uchun xar 100 kg tirik vazni uchun 60 g xazmlanuvchi protein kifoya, 1 kg semirishi uchun esa kami da 500 g xazmlanuvchi protein iste'mol kilishi kerak.

Buzoklar va urgochi tanalar ratsionida uglevodlar miqdorini aloxida xisobga olish kerak. Kuruk moddaga nisbatan kletchatka 3 oygacha 6-12%; 4-6 oyligida 16-18%,7-12 oyligida 20-22%,13-24 oyligida 22-24% bulishi kerak. Kuruk modda tarkibida kand 3 oygacha 15-16,5%, 6 oyligida 8,0-9,5%, 7-12 oyligida 6,5-9%,



13-24 oyligida 6,5-8,5%. Me`yordagi kand protein nisbati 0,8-1,0 darajasida turish shart.

Kuruk moddaga nisbatan yogning nisbati yosh buzoklarda 22-24%, 6 oylikda 5-5,5%, katta yoshdagi urgochi tanalarda 3% kifoya.

Urgochi tanalarni ustirishda mineral moddalar aloxida urin tutadi, ularning etishmasligi, modda almashinuvini buzilishi, usishdan kolish, ishtaxasini yukolishiga sabab bulishi mumkin.

Urgochi tanalarning kushimcha vaznining 4-5% mineral moddalar tashkil kiladi. Buzoklarning 6 oyligida 6 kg mineral moddalar, I yoshida esa 9-10 kg mineral moddalar tuplanadi.

Ratsionda mineral moddalarning etarli bulishi suyakni yaxshi usib mustaxkam bulishini, uning soglom bulishini ta`minlaydi.

Urgochi tanalarni ustirishda mikroelementlar aloxida urin tutadi. Ularning etishmasligi modda almashinuviga, maxsuldorligiga, ozikalar xazmlanishi va uzlashtirilishiga salbiy ta`sir kursatadi.

Urgochi tanalarning mikroelementlarga bulgan talabini kondirish uchun 1 kg kuruk modda xisobiga bulishi kerak, mg: temir 50-80; mis 5--10; rux 30-60; marganets 30-60; ko`balt 0,4-0,7 va yod 0,2-0,6.

Urgochi tanalar meyo`r darajasida usishi uchun ular etarli mikdorda A va D vitataminlar bilan, yoshligida esa katta korinlar rivojlanganligiga kadar V gurux vitaminlari bilan xam ta`minlanib turilishi kerak .

Tanalar uchun karotin manbai bulib usimlik ozikalari xisoblanadi.

6 oyligida I kg kuruk moddaga 26-37 mg karotin tugri kelsa, keyinchalik 22-25 mg kerak.

Vitamin D etishmasa raxit kasalligi kelib chikadi. Undan 6 oyda 0,6-0,9 ming ME; 6 oydan keyin esa 0,4-0,5mME kerak. Bu davrda urgochi tanalar boglamasdan asraladi. Ular molxona va yayrash maydonlarida saklanadi. Ozika tarkatish, gungni yigishtirish va sugorish ishlari tulik mexanizatsiyalashtirilgan bulmogi kerak.



Tajribalar shundan dalolat beradiki me`yorda oziklantirilgan va saklangan urgochi tanalar I yoshda 250-300 kg vaznga zrishishlari mumkin. Shu davrda urtacha kunlik usish 550-600 g tashkil kilishi tavsiya etiladi.

Kish paytida ozikalar uch marta tarkatilishi mumkin. Ertalab dastlab em ozikalar, keyin esa dagal va shirali ozikalar beriladi.

10 oylikdan boshlab ularni bonitirovka kilib yukori klasslarini olib kolib kolganlarini burdokilab gushtga topshirish kerak.

Tanalar 12 oyligida engil yayrash maydonlariga ega binolarga utkazilib 18 oylikkacha, 40-50 boshdan guruxlab saklanadi. Xar bir bosh tanaga bino ichidan 4 m , yayrash maydonidan 6 m² yuza ajratiladi.

Me`yorda oziklantirilgan urgochi tanalar 18 oyligida 350-400 kg tirik vazniga ega buladi yoki kunlik vazn ortishi 500-550 g tashkil etadi, yoki 1 kg semirishiga 9,0 ozika birligi 1000 g xazmlanuvchi protein sarflaydi.

Ularning vazni 340-350 kg, yoki 17-18 oyligida podadagi voyaga etgan sigirlarning tirik vaznining 65-70% etganida yukori maxsuldor bukalarning muzlatilgan uruglari bilan sun`ing uruglantiriladi.

I. Maqsudov tamonidan urgochi tanalarning va gunojinlarning ustirish buyicha kator ishlar kilingan ular tugrisda tuxtash maksadga muvofik xisoblanadi.

*Birinchi*dan O`zbekiston uchun rejali kora-ola zotli sermaxsul sigirlar ustirish imkoniyatlari ochib berilgan. Birgina kora-ola zotini golshtin zoti bilan chatishtirib olingan duragay tanalar 18 oyligida uzlarining sof zotli teng urlariga nisbatan 2 kg, birinchi tukkada 37 kg kup tosh bosib 1 laktatsiyada 3601 kg yoki 161 kg kup sut bergan.

Podani tuldiruvchi kora-ola zotli urgochi tanalar va gunojinlarni turli saklash usullarida ustirish imkoniyatlari isbotlab berilgan.

Urgochi tanalar va gunojinlar binolar ichida yayrash maydonchasi va majburiy xaydash (2-3 km) , bino ichi va yayrash maydonchalarida, xamda uch devorli ayvonli, ochik maydonchalarda ustirish natijalarga kuyidagilardan iborat buldi, 18 oylikda ular vazni 319,344,341,336 kg bulib, birinchi tukkada esa 489,500,485,491 kg vaznga ega bulib, 1 laktatsiyada ular 3181,3453,3326,3435 kg



sut berib erkin xarakatlantirish va ochik maydonchalarda ustirish urgochi tanalar va gunajinlarni yaxshi usib yukori sut maxsuldorligini shakllantirish garovi bular ekan.

I.Maqsudov, B.Abduraximov urgochi tanalarni kishda ayvonli maydonchalarda yozda sun`iy yaylovlarda ustirish nafakat soglom va ser maxsul sigirlar ustirish imkoniyatlari berishi isbotlanganlar. Birinchi tugim sigirlar vazni an`anaviy usulda ustirilgan sigirlarning tirik vazniga nisbatan 30-50 kg, I laktatsiyadagi suti esa 500-700 kg yukori bulini aniklangan.

Respubliqamiz sharoitida emning chegaralanganligi va kimmatli podani tuldiruvchi urgochi tanalarni ustirishda undan okilona foydalanishni takoza etadi. Shu boisdan urgochi tanalar va gunojinlarni ustirishda ratsion tuyimlilikini 15,20,30,40% em tashkil kilganda ularning usish va rivojlanishni, xamda sut maxsuldorligini shakllanishi xususiyatlari urganilgan. Shu asnoda ustirilgan urgochi tanalarning 18 oylikdagi tirik vazni 341,352,360 kg , I tukkada esa 433,453 va 481 kg tashkil etib, 1 laktatsiya natijalariga kura 3294,3403,3764 va 3578 kg sut berishi, sermaxsul sigirlar ustirishda ratsion tarkibida 30% atrofida em bulishi sut maxsuldorligini shakllanishiga ijobiy ta`sir etishi. em 15-20% bulganda tana va gunojinlarni usishiga salbiy ta`sir etib, sut maxsuldorligini biroz past bulishiga sabab buladi.

Ratsion tarkibida emni 40% bulishi tana va gunojinlarni me`yordan oshikcha semirishiga sabab bulib yirik sut-gusht tipidagi sigirlarni shakllanishiga olib keladi va sut maxsuldorligiga ijobiy ta`sir etmaydi.

Uzbekistonda urgochi tanalar va gunajinlarni ustirish bilan shugulanuvchi xujaliklarning ozika zaxiralari va imkoniyatlari bir xil emas. Shuni inobatga olib turli mulk shaklidagi, xar xil ozika zaxiralari mavjud xujaliklar urgochi tanalar va gunojinlarni ustirish yullari aniklangan. Bunda me`yor buyicha ustirilgan, me`yordan oshikcha jadal ustirilgan; 6 oygacha jadal 6-18 oylikda me`yorda, 18 oydan tukkancha jadal ustirilgan; 18 oylikkacha me`yorda 18 oylikdan tukkancha



jadal, 16 oylikdan tukkancha urtacha ustirilgan urgochi tana gunajinlar ushbu rivojlanishi, va sut maxsuldorligini shakllanishi urganilgan. Bu tadqiqotlar jadal ustirirgan tanalar jussasi yirik, vazni katta bulib, me`yorda ustirilgan tanalarga nisbatan 18 oyligida 28 kg I tukkada 36 kg kup tosh bosgan, shuningdek butun ustirish davomida jadal usulni kullash ularda yukori sut maxsuldorligini shakllanishiga olib kelar ekan.

Jadal ustirilgan birinchi tugim sigirlar eng kup 3640 kg sut berib boshka guruxlarga nisbatan 520,292,437 va 446 kg kup sut berishi aniklangan. Ayniksa bu usul ozika etishtirishda muammolari bor xujaliklar uchun kul kelib uzlari uchun kulay usullarni tanlab olish imkoniyatini beradi.

Kupayish kishlok xujalik xayvonlarida murakkab biologik jarayon bulib, podani kayta tiklashni ta`minlaydi. Umuman bu jarayon uz ichiga jinsiy tsikl, bugozlik, tugish, va tugishdan keyingi davrni tashkil etadi.

Jinsiy balogat yoki avlod koldirishga kobiliyat, kishlok xujalik xayvonlarida rivojlanishning tugashi va jismoniy balogat yoshiga nisbatan ancha erta ruy beradi. Buzoklar tugilgan kunidan ularning konida estrogen mavjud bulib, 1,0-1,4 mkg., 2-3 oyligida tuxumdonlarda uzgarishlarni sezish mumkin estrogen garmonlar 1,6-1,8 mkg gacha kupayadi. 4 oyligiga kelib jinsiy gormonlar konda 6,9 mkg, 6-7 oyligida esa 22 mkg ga etadi.

Jinsiy balogat yoshigacha tuximdonning gormonol faoliyati juda sust buladi. Shaxsiy rivojlanishning daetlabki davrlarida gormonlar xosil bulishi uning parchalanishiga nisbatan yukori buladi.

Jinsiy balogat yoshi buzoklarni oziklantirish me`yorlariga va saklash usullariga boglik. Etarli oziklantirilmagan ratsion tarkibida protein, makro va mikroelementlar vitaminlar etishmasligi jinsiy balogatga etishni 2-3 oyga kechiktirib yuboradi. Ayniksa buzoklarni zich korongi, xavosi buzuk, sovuk va zax binolarda saklash ularni jinsiy faoliyatini shakllanishiga salbiy ta`sir kursatadi.

Urgochi buzoklar va tanalarni yorug, yaxshi, shamollatish imkoniyati borilik, namlik me`yorda binolarda saklash ularning jinsiy jixatdan me`yorda



uygonishini ta`minlaydi. Ayniksa buzoklarni yayratish, xar kuni 2-3 km majburiy xaydash ochik maydonchalarda ustiriga ularning jinsiy faoliyatini gurkiratib tez jinsiy va jismoniy balogatga etishiga ijobiy ta`sir kursatadi.

Bu urinda koramolning zoti xam jinsiy balogat yoshiga ta`sir etadi, tez etiluvchan zotlarda ertarok, yirik va gusht yunalishidagi zotlarda biroz kechroq ruy beradi. Umuman olganda jinsiy balogat urgochi buzoklarda 8-10 oyligida ruy beradi, ba`zida esa biroz ertarok xam ruy berishi mumkin, shuning uchun kuzda tutilmagan juftlashishlarning oldini olish 7 oyligidan boshlab erkak va urgochi buzoklarni aloxida saklash tavsiya etiladi.

Jinsiy balogatga etishi xamona tuxumdonda davriy ravishda follikulalar xosil bulib, tuxum xujayrasi etilib, jinsiy a`zolarning endokrin faoliyati kuchayadi. Ruy berayotgan uzgarishlar xar xayvon turiga xos tashki fe`latvorda uz aksini topadi, ya`ni ularda jinsiy tsikl kuzatila boshlaydi, jinsiy kuyikish va moyillik alomatlarini kuzatish mumkin, shuningdek tashki jinsiy a`zolarida xam uzgarishlar ruy beradi. Bu davrda urgochi tanalar va yosh tanalarning favkulodda jinsiy kovushishi bugoz bulishga olib keladi, bu xolat xayvonning usish va rivojlanishiga salbiy ta`sir kursatadi, tugish kiyin kechadi, bunday sigirlar jussasi kichik, maxsuldorligi past buladi. Shu boisdan urgochi tanalarni kochirish albatta jismoniy (fiziologik) balogatga etgandan keyingina emalga opshrilishi shart. Bu davrda xayvonlar jussasi kattalashib, mustaxkamlanadi, jinsiy faoliyat mu`adillashadi, xayvon otalaanish va xomila kutarishga tayyor buladi.

Jismoniy balogatga etishni urgochi tanalarni jadal ustirish va yaxshi sharoitlarda saklash tezlashtiradi va podani kiska muddatlarda sermaxsul sigirlar bilan ta`minlash imkonini beradi.

Kupgina rivojlangan mamlakatlarda(Isroil, Evropa, Shimoliy Amerika) urgochi tanalar 13-15 oyligida 350-400 kg vaznda kochirilmokda.

Uzbekiston sharoitida turli usullarda ustirilgan urgochi tanalarni 16-18 oyligida vazni 340-350 kg yoki podadagi voyaga etgan sigirlar vaznining 65-70% bulganda kochirish maksadga muvofikdir. Kup tajribalar shundan dalolat beradiki, (M.Maksulov,1994) shu yoshda jinsiy faoliyat jush urgan buladi, urgochi tanalarda



jinsiy tsikli uz vaktida utib, kuyikish va moyillik faol kechadi, natijada yaxshi uruglanib, otalanish ruy beradi. Kochirish indeksi boryugi 1,5-2 tashkil etadi.

Urgochi tanalarni iloji boricha avlodlarining maxsuldorligi buyicha baxolangan va yaxshilovchi deb tan olingan bukalarning muzlatilgan uruglari bilan kochirish maksadga muvofik xisoblanadi, fakat naslchilik xujaliklarda binoan jussasi kichik bukalarni tanlash maksadga muvofik xisoblanadi.

Sun`iy uruglantirish ijobiy shatijalar bermagan urgochi tanalarni asl bukalalar bilan kuldan kochirish samara beradi.

Urgochi tanalarni kochirish davrida mamlakatimizning iklim xududlari va yil faslarini xam inobatga olish mumkin.


Urgochi tanalarni uz vaktida kochirib bugoz kilish muxim zootexnikaviy va iktisodiy omil bulib xisoblanadi. Chunki urgochi tanalar yoshi ulgayishi bilan ularning jinsiy faoliyati sustlasha boradi, kaysiki otalanish kursatkichlariga salbiy ta`sir kursatadi (I.A.Danilenko,1978) ma`lumotlariga Karaganda 18 oylik tanalar kochirilganda atalanmaganlari 4-8% bulgani xolda 24 oylikda bu kursatkich 16--25% tashkil kiladi.

Urgochi tanalarni muddatidan utib kochirish yil davomida sigirlardan olingan sut mikdorini kamayishiga va sigir ustirish xarajatlarini kupayishiga sabab buladi.

N.G.Dmitriev va I.M.Borisov (1982) ma`lumotlariga karaganda, 24 oyligida birinchi marta tukkan sigir 10 yil xujalikda foydalanish mobaynida 36 oyligida tukkan sigirga nisbatan 60% kup sut , buzok va 50% kup gusht berishi mumkin.

Shunday kilib urgochi tanalarni me`yorda ustirib uz vaktida kochirish podani kayta tiklash va uni takomillashtirishda muxim omil bulib xisoblanadi.

Urgochi tanalarni jadal ustirib 16-18 oyligida 350-360 kg tirik vaznda kochirish xam gunojinlarni tugishga tayyorlash konikarsiz bulganda sermaxsul sigir ustirish imkonini bermaydi. Sudor xayvonni shakllantirish urgochi tanani kochirgandan sung xam davom etishi shart. Bu urinda gunojinlarni tugishga va laktatsiyaga tayyorlash bekiyos urin tutadi, uning sifati albatta tugish buzok xolati, laktatsiyada sogib olingan sutda uz aksini topadi. Gunajinlarni tugishga



tayyorlanganligini baxolash muammosi mavjud. Bunda birinchi navbatda gunojinning tashki belgilari, asosida amalga oshiriladi. Shu boisdan gunsjinlarni tugishga tayyorlash ular bugozligining birinchi oyidan boshlanmogi kerak, bu esa birinchi va kelgusi laktatsiyalarda sigirlarning kup sut berishiga garov buladi.

Bizning sharoitimizda birinchi tugim sigirlardan eng kamida 3000 kg sut sogib olishni xisobga olib xarakat kilish kerak. Eng kamida oziklantirish va saklash ushbu talabni ta`minlash darajasida tashkil kilinishi kerak. Urgochi tananing bugozligi aniklangandan keyin (2-3 oy) gunojinlar guruxiga utkaziladi va bugozlshsning oxirigacho saklanadi. Dastlab 6 oylikkacha bugoz, keyinchalik esa 6-9 oylik gunojinlar guruxi tashkil etilsa maksadga muvofik buladi.

Gunajinlarni molxona va yayrash maydonchalarida boglamasdan ustirish kerak. Ularning iloji boricha kuprok xarakat kildirish choralari kurish kerak. Bino va yayrash maydonchalari eri tekis bulib tushama solingan bulishi kerak. Aks xolda gunojinlar yikilishi natijasida jaroxat olishlari mumkin. Bu guruxlarda gunojinlarga ozikalar uziyurar ozika tarkatgichlar yordamida tarkatiladi, gung esa zanjirli transportyorlar yayrash maydonida esa surgichlar yordamida ularni sugorish suv oxurlari yordamida amalga oshiriladi.

